

OITS (SPID) XABARDORLIK – HAYOT NAJOTI

*Qo'shboqova Sevinch Nuriddin qizi**Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabasi**Rashidova Zebo Rahmatullo qizi**Samarqand davlat tibbiyot**universiteti 1-kurs talabasi**Ilmiy rahbar: Matkarimova Gulnaz Maqsudjanovna**Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tibbiy**biologiya kafedirasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada insoniyatning eng dolzarb muammolaridan biri — OITS kasalligi, uning kelib chiqish sabablari va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Maqolada virusning yuqish yo'llari, ayniqsa, qon orqali yuqish xavfi hamda kasallikning oldini olish choralari aniq faktlar asosida tahlil qilinadi. Kasallikka qarshi kurashda profilaktikaning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi.

Аннотация: В данной статье рассматривается одна из самых актуальных проблем человечества – СПИД, его причины и последствия. В статье анализируются пути передачи вируса, особенно через кровь, и методы его выявления на основе конкретных фактов. Неоценимо подчеркивается роль профилактики в борьбе с болезнью.

Abstract: This article examines one of the most problematic problems of humanity - AIDS, its causes and problems. The article analyzes the ways of transmission of the virus, especially blood-borne transmission, and its detection based on concrete facts. The role of prevention in the fight against the disease is incomparably emphasized.

Kalit so'zlar: OIV, OITS, immun tizimi, infeksiya, profilaktika, qon orqali yuqish, salomatlik.

Kirish

Har yili 1 – dekabr kuni butun dunyo hamjamiyati bir maqsad yo'lida birlashadi: OITS ga qarshi kurash. Tibbiyot qanchalik taraqqiy etmasin, bu virus hali ham insoniyatning eng zaif nuqtasi bo'lib qolmoqda. Xo'sh, nega biz hamon bu virusni mag'lub eta olmayapmiz va xavf bizga qanchalik yaqin? OITS o'zi qanday kasallik: Shunchaki xastalikmi yoki immunitet "qulashi"? Bu kasallik birinchi bor 1981 – yilda AQSHda qayd etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyo miqyosidagi eng og'ir sog'liq muammolaridan biridir. Bugun bu mavzuda gapirish nafaqat shifokorlarning, balki har birimizning burchimizdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOS) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti

(BMT) OIV bo'yicha qo'shimcha hisobotiga ko'ra, 1981 yildan 2006 yilgacha OIV va OITS dan 25000000 kishi vafot etgan. Birgina 2006 yilda qurbonlar soni 2.9 million kishini tashkil qilgan

OITS – “Orttirilgan Immunitet Tanqisligi Sindromi” bo'lib, odam organizmida immunitet yo'qolishi bilan kechuvchi xavfli yuqumli kasallikdir.

OITS – OIV infeksiyasining oxirgi bosqichi.

OIV – “Odam Immun Tanqislik Virusi.

OIV – infeksiyasi yuqumli kasallik bo'lib, u hamma bosqichida

Asosiy qism

KASALLIK SABABLARI: Virus qayerdan keladi? OIV virusi organizmga tushishi uchun unga maxsus sharoit kerak. Virus o'z o'zidan paydo bo'lmaydi, u faqat virus tashuvchi odamdan sog'lom odamga o'tadi. OIV virusi tashqi muhitda juda zaif, u havoda yoki suvda yashay olmaydi. Shunga qaramay, u dunyo bo'ylab millionlab insonlarni zararlashda davom etmoqda. Kasallik tashqi ichki omillar natijasida yuzaga keladi.

YUQISH YO'LLARI:

- Jinsiy aloqa – bu yo'l dunyo bo'ylab yangi kasallanish holatlarining 80 foiz dan ortiq tashkil etmoqda. Himoyalangan bir martalik jinsiy aloqa paytida ham virus yuqishi mumkin.

- Gematogen (Qon orqali) – bu yo'l asosan giyohvandlar, balki oddiy aholi o'rtasida ham uchraydi. Nosteril asboblari, ustara, stomatologik asboblari, kasketologik asboblari, bir necha marta foydalanilgan shprits (giyohvandlar orasida ko'p uchraydi), donorlik qoni.

- Vertikal yo'l (onadan bolaga) – bu onadan bolaga yuqish yo'li bo'lib, u uch bosqichda sodir bo'lishi mumkin:

Homiladorlikda – yo'ldosh orqali

Tug'ruq vaqtida – bola ona qoni bilan kontaktda bo'lganda

Emizishda – ona bolani ovqatlantirish vaqtida sut orqali virus o'tadi bugun jamiyatda eng katta fojia – ayolning ozi OIV yuqtirganini bilmasligi oqibatida butun umrga kasallik bilan tug'ilayotgan go'daklardir.

BOSQICHLARI:

- Inkubatsiya davri organizmga virus yuqishidan boshlab 14 kundan bir yilgacha davom etadi

- O'tkir davri virus yuqqandan 7- 14 kundan, bazan 30 kun o'tgach namoyon bo'ladi. Bu davr kasallik alomatlari: haroratning ko'tarilishi, sovqotish, bedarmonlik, laringit, bosh og'rig'i, stomatit, ko'ngil aynishi, ich ketishi kabi o'tkir belgilar namoyon bo'ladi

- Latentlik davrida kasallik alomatlarining pasayishi, limfa bezlarining og'riqsiz yiriklashuvi kuzatiladi. Latent davri 5- 10 yil davom etadi.

- OITS dan oldingi davr 1 – 2 yil davom etadi. Bu davrda hujayra immuniteti pasayishi tufayli stomatit, herpes, kandidoz, til leykoplakiyasi kabi kasalliklarning takrorlanishi va uzoq davom etishi bilan bog'liq

- Terminal, ya'ni OITS davri virusli infeksiyaning so'nggi o'limoldi davr hisoblanadi. Bu davr sil, meningit, ensefalit, gripp, o'pka yallig'lanishi, infeksiyali va infeksiyasiz kasalliklar kuzatiladi. Bu davr 3 yil davom etadi.

OIV INFEKSIYANING OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI:

- Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, ya'ni faqat shaxsiy ustara, tish cho'tkasi, qaychi va boshqalardan foydalanish;

- Tibbiy muolajalar olish zarurati bo'lganda faqatgina bir marotaba ishlatiladigan tibbiy anjomlardan, ya'ni bir martalik rezina qo'lqoplardan hamda shaxsiy shprist va ignadan foydalanish;

- Quyiladigan donor qoni doimo OIV ga tekshirilgan bo'lishi ;

- Himoyalangan jinsiy aloqa har doim sifatli prezervativlardan foydalanish virus yuqishini kamaytiradi

- Shaxsiy pardozi vositalari manikyr asbob uskunalarini steril holatda foydalanish.

DAVOLASH:

OITS ni to'liq yo'qotib bo'lmaydi, lekin maxsus dorilar yordamida OIV nazorat ostida saqlanadi va inson uzoq yashashi mumkin.

Xulosa

“XXI asr o'lati “ deb nom olgan OITS ni davolash, unga qarshi emlash usullari yaratilmagan. Virusni yuqtirmaslik uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilishdan iborat. OITS – jiddiy, ammo oldini olish mumkin bo'lgan kasallikdir. U asosan ma'lum yo'llar orqali yuqadi va kundalik muloqatda tarqalmaydi. 1 – dekabr “Umumjahon OITS ga qarshi kurash kuni “deb e'lon qilingan. OITS – bu hukm emas, balki hushyorlikka chaqiriqdir. O'zingizni va yaqinlaringizning salomatligiga befarq bo'lmang!

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

- ✓ “Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik” asari, I.A.Karimov
- ✓ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari.
- ✓ Y.M.Axmedov “Tibbiyot Kasbiga Kirish” o'quv qo'llanma
- ✓ Med24.uz
- ✓ <https://www.gazeta.uz>
- ✓ <https://www.inlibrary.uz>